

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

**OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60102300-Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)

Fan/modul kodi OliPsi13408		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yo‘qlama (soat)	
	Oligofrenopsixologiya	60	60	120	
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga oligofrenopsixologiya fani bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, maktabgacha va maktab yoshidagi aqli zaif bolalar bilish jarayonining xususiyatlarini, intellektida nuqsoni bor bolalar shaxsining turli faoliyatlarda rivojlanish xususiyatlarini, ruxiy jarayonlarni usul va uslubiyatlar asosida tekshirishni, psixokorreksion ish turlarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi-talabalarga nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, pedagogik va psixologik jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, maktabgacha va maktab yoshidagi aqli zaif bolalarning ruhiyati rivojlanishi qonuniyatlarini bilish, psixokorreksion usullarni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Maktabgacha oligofrenopedagogika va maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Kyoln Universiteti (Germaniya) Aqliy nuqsoni bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 287-o‘rinni egallagan bo‘lib, o‘z sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Kyoln Universitetining maxsus ta’lim kursida pedagogik nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik munosabatlarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro huquqiy me’yorlar, ayniqsa, Germaniya ta’lim tizimini amalga oshirish munosabatlari tartibga solinadi. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar pedagogic holatlarni mustaqil tahlil qilish, g‘oyalarga tayangan holda shaxsiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I-Modul. Maktabgacha oligofrenopsixologiya.				

1-mavzu. Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining yuzaga kelish tarixi, Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining predmeti va vazifalari. Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining metodlari, tamoyillari, turli fanlar bilan bog'liqligi.

2-mavzu. Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining rivojlanish tarixi

Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining yuzaga kelish tarixi. Xorij davlatlarida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning psixologiyasini o'rganishga doir olib borilgan ishlar. XIV-XV asrlarda aqli zaif bolalarga bo'lgan munosabat. Aqli zaif bolalar psixologiyasini ilmiy jihatdan o'rgangan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari obzori.

3-mavzu. Aqli zaiflikning klinik, psixologik tavsifi

Aqli zaiflikning kelib chiqishi sabablari. Aqli zaiflik patogenezi. Aqli zaiflik belgilari. Aqli zaiflikning rivojlanish dinamikasi.

Aqli zaiflikning klassifikatsiyasi. Yengil, o'rta, og'ir va o'ta og'ir darajadagi aqli zaif bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

4-mavzu. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning sezgi va idrok xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning sensor rivojlanish xususiyatlari. Yosh davrlarda ranglarni ajratish xususiyatlari. Ko'ruv, eshituv, taktil, kinestetik idrok xususiyatlari haqida umumiy tushuncha. Aqli zaif bolalarda sezgi va idrok rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Aqli zaif bolalarning idrok xususiyatlarini o'rganish metodikalari.

5-mavzu. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning xotira xususiyatlari

Xotira haqida umumiy tushuncha (turlari, xususiyatlari). Aqli zaif bolalarda xotira jarayonining o'ziga xos rivojlanishi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira va uzoq muddatli xotiraning orqada rivojlanishi I.M. Finkilshteyn, M.I. Kuzmitskaya, V.G. Petrova va boshqa olimlarning izlanishlari natijalari. Aqli zaif bolalar xotirasining o'ziga xos xususiyatlari. Aqli zaif bolalarning xotira kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

6-mavzu Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlari

Tafakkur – bilish jarayonining yuqori pog'onasi ekanligi. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkur turlari: ko'rgazma – xarakatli, ko'rgazma – obrazli, so'z - mantiq. Aqli zaif bolalarda tafakkur rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Aqli zaif bolalarning tafakkurini o'rganish usullari.

7-mavzu Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning diqqat xususiyatlari

Diqqat haqida tushuncha, turlari, xususiyatlari (ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat). Diqqat xajmi, taqsimlanishi, turg'unligi, ko'chishi. Diqqatning fiziologik asosi. Rus olimlari A.R. Luriya, Ye.D. Xomskaya, I.L. Baskakovalarning ilmiy izlanish ishlari. Aqli zaif bolalar diqqatining o'ziga xos xususiyatlari. Aqli zaif bolalarning diqqatini o'rganish usullari.

8-mavzu Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutq xususiyatlari

Nutq haqida umumiy tushuncha, nutqning rivojlanish bosqichlari. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda talaffuz kamchiliklari. Nutqning orqada rivojlanishi. Lugʻat zaxirasining kambagʻalligi. Nutqning grammatik qurilishi kamchiliklari. Soʻz maʼnolarini yaxshi tushunmaslik

9-mavzu. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning shaxsi va shaxslararo munosabati xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar shaxsining rivojlanish xususiyatlari. Shaxsning rivojlanishida atrof-muhitning tutgan oʻrni. Shaxsning kamol topishida taʼlim-tarbiyaning ahamiyati. Aqli zaif bolalar xulq-atvor xususiyatlari, xissiyotning, motorikaning, faoliyat turlarining rivojlanmaganligi. Shaxs rivojlanishida oila turlarining taʼsiri.

10-mavzu. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning faoliyat xususiyatlari.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning predmetli faoliyati rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari, oʻyin faoliyatining shakllanishi xususiyatlari, muloqat xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning produktiv faoliyati rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari.

II.-modul Oligofrenopsixologiya

1-mavzu. Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Oligofrenopsixologiya–maxsus psixologiya fanining bir qismi sifatida. Oligofrenopsixologiya predmeti, metodlari, turli fanlar bilan bogʻliqligi. Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiyar taʼlimotida psixologik-pedagogik qarashlar, rus olimlari L.S. Vigotskiy, I.P. Pavlov, G.Ye. Suxareva, M.S. Pevzner, L.V. Zankov V.I. Lubovski, F.A. Rau, Ye. Shipitsina ishlarida nuqsonlik muammosi.

2-mavzu. Aqli zaif oʻquvchilarning sezgi va idrok xususiyatlari

Aqli zaif oʻquvchilar bilish jarayonlarining xususiyatlari. Aqli zaif oʻquvchilarda sezgi va idrok rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari. Sust va tor idrok qilish, kuzatuvchanlik xususiyatlari. Idrok qilish va sezgirlik qobiliyatining zaifligi. Aqli zaif oʻquvchilar idrokining oʻziga xos xususiyatlari. Aqli zaif oʻquvchilarning idrok kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

3-mavzu. Aqli zaif oʻquvchilarning xotira xususiyatlari

Aqli zaif bolalarda xotira jarayonining oʻziga xos rivojlanishi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira va uzoq muddatli xotiraning orqada rivojlanishi I.M. Finkilshteyn, M.I. Kuzmitskaya, V.G. Petrova va boshqa olimlarning izlanishlari natijalari. Aqli zaif bolalar xotirasining oʻziga xos xususiyatlari. Aqli zaif oʻquvchilarning xotira kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

4-mavzu. Aqli zaif oʻquvchilarning tafakkur xususiyatlari

Tafakkur – bilish jarayonining yuqori pogʻonasi ekanligi. Tafakkur operasiyalari. Tafakkur turlari: koʻrgazma – xarakatli, koʻrgazma – obrazli, soʻz - mantiq. Aqli zaif oʻquvchilarda tafakkur rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari. Aqli zaif

o'quvchilarning tafakkur kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

5-mavzu. Aqli zaif o'quvchilarning diqqat xususiyatlari

Diqqatning fiziologik asosi. Rus olimlari A.R. Luriya, Ye.D. Xomskaya, I.L. Baskakovalarning ilmiy izlanish ishlari. Aqli zaif o'quvchilar diqqatining o'ziga xos xususiyatlari. Aqli zaif o'quvchilarning diqqat kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

6-mavzu. Aqli zaif o'quvchilarning nutq xususiyatlari

Aqli zaif bolalarda talaffuz kamchiliklari. Nutqning sust suratda rivojlanishi. Lug'at boyligining xususiyatlari. Nutqning grammatik qurilishi kamchiliklari. So'z ma'nolarini yaxshi tushunmaslik. Aqli zaif o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqning rivojlanishi, dialogik va monologik nutq, nutq va faoliyatning o'zaro bog'liqligi. Aqli zaif o'quvchilarning nutq kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

7-mavzu. Aqli zaif o'quvchilar shaxsi va shaxslararo munosabati xususiyatlari

Aqli zaif o'quvchilar shaxsining rivojlanish xususiyatlari. Shaxsga oid tushunchalarni tahlil qilish. Inson, individ, tushunchalari. Shaxsning shakllanishida irsiy omillarning roli. Shaxsning rivojlanishida atrof-muhitning tutgan o'rni. Shaxsning kamol topishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati. Aqli zaif bolalarda shaxsiy sifatlarni tarbiyalash. G.M.Dul'nyev, L.I.Bojovich, N.A.Kolominskiylarning ilmiy ishlari.

Aqli zaif o'quvchilarning shaxslararo munosabati xususiyatlari. Aqli zaif bolaning psixik rivojlanishida munosabatlarning ahamiyati. Shaxslararo munosabatlarda orqada qolish, turg'un bo'lmaslik holatlari. Rasmiy va norasmiy yetakchilar. Qo'zg'aluvchan, tez xafa bo'luvchan, xulqlari turg'un bo'lmagan aqli zaif o'quvchilarning o'zaro munosabatlari. Aqli zaif o'quvchilarning shaxs va shaxslararo munosabat kamchiliklarini bartaraf etish usullari.

8-mavzu. Aqli zaif bola shaxsining rivojlanishida oilaning ta'siri

Oilada ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolaning tug'ilishi bilan kelib chiqadigan muammolar. Buzilgan oilaviy tarbiya turlarining klassifikatsiyasi. Ota-ona va ruxiy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolaning o'zaro munosabatlari. Intellektida kamchiligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaning ijtimoiy-psixologik tavsifi.

Aqli zaif bola shaxsini rivojlanishida oilaviy tarbiyaning ta'siri. Oilada onaning roli. Oiladagi o'zaro munosabatlarning aqli zaif bola shaxsini rivojlanishiga ta'siri. Oilada ijtimoiy-maishiy malakalarni rivojlantirish.

9-mavzu: Aqliy nuqsoni bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish

Aqliy nuqsonlari bo'lgan odamlarni reabilitatsiya qilish (PSY) mavzusi orqali bitiruvchilar reabilitatsiya tizimlari va jarayonlarini ilmiy aks ettirish, tahlil qilish, harakat qilish, aralashuvlarni rejalashtirish va baholash, shuningdek ilmiy qo'llab-quvvatlash bilan ularni yanada rivojlantirish uchun zarur ilmiy va metodik bilimlarga ega bo'lishadi

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

1.Maktabgacha oligofrenopsixologiya kursi metodlari, tamoyillari.

2. Maktabgacha oligofrenopsixologiya fanining yuzaga kelish tarixi.
 3. Aqli zaiflikning klinik, psixologik tavsifi, aqli zaiflik darajalari
 4. Psixik rivojlanishning umumiy va xususiy qonuniyatlari.
 5. Go'daklik davridagi va ilk yoshdagi aqli zaif bolalarning ruxiyatini shakllanishi xususiyatlari
 6. Ilk yoshdagi aqli zaif bolalarni pedagogik, psixologik o'rganish metodlari
 7. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni pedagogik, psixologik o'rganish metodlari
 8. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning sezgi va idrok xususiyatlarini o'rganish metodlari
 9. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning xotira xususiyatlarini o'rganish metodlari
 10. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlarini o'rganish metodlari
 11. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning diqqat xususiyatlarini o'rganish metodlari
 12. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutq xususiyatlarini o'rganish metodlari
 13. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning shaxsi va shaxslararo munosabati xususiyatlarini o'rganish metodlari.
 14. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomasini tuzish.
 15. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning faoliyat xususiyatlari.
 16. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligi
 17. Oligofrenopsixologiya kursi metodlari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
 18. Aqli zaif o'quvchilarni psixologik-pedagogik o'rganish metodlari
 19. Aqli zaif o'quvchilarning sezgi va idrok xususiyatlarini o'rganish usullari.
 20. Aqli zaif o'quvchilarning xotira va tafakkur xususiyatlarini o'rganish usullari.
 21. Aqli zaif o'quvchilarning diqqat va nutq xususiyatlarini o'rganish usullari.
 22. Aqli zaif o'quvchilarning o'quv faoliyatiga munosabati.
 23. Aqli zaif o'quvchilarning shaxsi rivojlanishini o'rganish usullari
 24. Aqli zaif o'quvchilarning xissiy-irodaviy xususiyatlari
 25. Aqli zaif o'quvchilarning muloqat xususiyatlari.
 26. Aqli zaif bola va o'smirlarning xulq-atvor buzilishlari.
 27. Aqli zaif bola shaxsining rivojlanishida oilaning ta'siri.
 28. Aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi.
 29. Aqli zaif o'quvchilarga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish.
 30. Aqli zaif o'quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion ish turlari
- Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni yechish, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni faoliyat davomida kuzatish, tahlil etish, psixologik test, uslubiyatlarni o'rganish, amaliyotda qo'llay

olishga o'rgatish ishlari olib boriladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya yetiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhli o'quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- psixologik tekshirish ishlanmalarini tayyorlash;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Oligofrenopsixologiya fanining rivojlanish tarixi.
2. Oligofrenopsixologiya fanida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar
3. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning muloqat xususiyatlari.
4. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning o'yin faoliyatini o'rganish sxemasini tuzing.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
6. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvur xususiyatlari.
7. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni psixologik tekshirish uchun uslubiyatlar majmuasini tayyorlash
8. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolaga psixologo-pedagogik tavsifnoma tuzing.
9. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi faoliyati.
10. L.S. Vigotskiy ta'limoti.
11. YE. A. Strebeleva metodikasi asosida ilk yoshdagi bolalarni o'rganish.
12. 2-3 yoshdagi bolalarning ijtimoiy-xissiy rivojlanish ko'rsatkichlari.
13. Aqli zaif bolalarda o'yin faoliyatining shakllanishi.
14. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvur xususiyatlari.
15. Aqli zaif bolalarning xarakter xususiyatlari
16. Aqli zaif bolani tarbiyalayotgan oilaning ijtimoiy-psixologik tavsifi.
17. Aqli zaif bolalar oliy asab faoliyatining xususiyatlari.
18. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.
19. Aqli zaif bolalarning dialogik va monologik nutqi.
20. Verbal va noverbal tafakkurni o'rganuvchi testlar.

	21.Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smir o'quvchilarning agressiv xulq-atvori xususiyatlari. 22.Aqli zaif bolalarning xarakter xususiyatlari. 23.Ixtisoslashtirilgan maktab psixologi faoliyati 24.Aqli zaif bolalarning rivojlanish xususiyatlari. 25.Aqli zaif bolani tarbiyalayotgan oilaning ijtimoiy-psixologik tavsifi 26.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. 27.Quyi sinf aqli zaif o'quvchilarni psixologik tekshirish uchun uslubiyatlar majmuasini tayyorlash Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanidagan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: • Oligofrenopsixologiya tushunchasi va asoslari, oligofrenopsixologiya nazariyalari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • Oligofrenopsixologiya nazariyalari asoslarini, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarga differensial yondashish; intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar psixik jarayonlarini o'rganishning shakl va metodlarini to'g'ri tanlay olishni, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi kamchiliklarni tasniflash; bolalarning psixik jarayonlarini o'rganish, tekshirish uchun uslubiyatlar, psixologik testlarni tanlay bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) • talaba aqli zaif bolaga yoshining turli rivojlanish bosqichlarida korreksion yordam va psixologik hamrohlik qilishni psixologik asoslash; pedagoglarga, ota-onalarga kerakli maslahatlar berish, alohida yordamga muxtoj bolalarning hayot tarzini tashkil etish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar) • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • ijodiy ishlar yaratish.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

- 1.S.Umarova "Maxsus pedagogikaning klinik asoslari" T-2020
2. "Maktabgacha surdopedagogika" Jamoa T-2022
3. "Logoritmika" L.Xayitov, I.Xaydarov, M.Xoboboyeva Far-2023
4. M.Maxmudova "Logopediya" T-2021
- 5.X.Raximova "Koxlear implanti bolalar bilan logopedik ish" T-2021

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent "O'zbekiston" 2016 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak
5. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz
- 6.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

- 1.O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.

Axborot manbaalari

<http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

<http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

<http://www.president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

	http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti http://www.kun.uz – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlar sayti 6. Daraja dasturi 412
Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan	
Fan/modul uchun mas’ul va dastur muallifi: D.Yo‘ldasheva– QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi X.Raximova – QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrasi dotdenti (PhD)	
Taqrizchilar: M.Hamidova – TDPU “Oligofrenopedagogika” kafedrasi mudiri p.f.n. dots N.Mirboboyeva – QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi	